

## TARJIMASHUNOSLIKNING TARIXIY TARAQQIYOTI VA MADANIYAT BILAN O'ZARO BOG'LIQLIGI

**Baratova Nargiza Nodirovna**

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti  
Ingliz tili tarjimonlik fakulteti 1-kurs talabasi

**Annotatsiya:** Tarjimashunoslik butun dunyo bo'ylab alohida fan sifatida rivojlanib borar ekan, bugungi kunda uning tarix va madaniyat bilan uzviy bog'liqligi yanada yaqqol namoyon bo'ladi. Ushbu maqolada tarjimaning tarixiy taraqqiyot bosqichlari hamda uning xalqlar o'rtasidagi madaniy va ma'naviy aloqalarni mustahkamlashdagi muhim o'rni yoritiladi. Muallif mazkur masalani misollar orqali ifodalashga harakat qiladi.

**Kalit so'zlar:** tarjimashunoslik, tarjimon, til, aloqa, madaniyat, so'zma-so'z tarjima, ma'naviy tarjima, grammatika.

XX asrning 30-yillaridan boshlab O'zbekistonda tarjima sohasini rivojlantirish hamda turli ilmiy tadqiqotlar olib borish borasida jiddiy islohotlar amalga oshirildi. Natijada bu masala ko'plab olimlarning e'tibor markaziga aylandi va tarjimaning kelib chiqishi, rivojlanish bosqichlari hamda uning madaniy jihatlarini o'rganishga keng yo'l ochildi.

Tarjimon tarjimini to'g'ri va sifatli amalga oshirishi uchun, avvalo, uning tarixiy taraqqiyotidan xabardor bo'lishi zarur. Dastlab tarjimaga ehtiyoj savdo-sotiq aloqalari, diplomatik munosabatlar va diniy matnlarni yoyish jarayonida yuzaga kelgan. Jamiyatlar o'rtasidagi aloqalar kengaygani sari tarjimaning ahamiyati ham ortib bordi.

Tarjimashunoslik tarixini shartli ravishda to'rtta asosiy bosqichga bo'lib o'rganish mumkin. Birinchi bosqich (qadimgi davr – XVIII asr oxiri) amaliy, ya'ni tajribaviy davr hisoblanadi. Bu davrda tarjimonlar aniq nazariya va qoidalarga ega bo'lmagan. Shu sababli ular asosan o'z tajribalariga tayangan holda *word-for-word* (so'zma-so'z) tarjima usulidan foydalanganlar. Mazkur usul ayrim kamchiliklarga ega bo'lsa-da, tarjima amaliyotining shakllanishida muhim rol o'ynagan. Hozirgi kunda ham ushbu usulning ayrim elementlari ilmiy va texnik matnlarni tarjima qilishda qo'llanib kelinadi.

Ikkinchi bosqich (XVIII asr – XX asr o'rtalari) nazariy va germevtik davr hisoblanadi [1,49]. Bu davrda tarjimada tushunish, talqin qilish, qoidalar va prinsiplar asosiy o'ringa chiqdi. "Qanday qilib yanada mukammal tarjima qilish mumkin?" degan savolga javob izlash jarayonida *sense-for-sense* (mazmuniy) tarjima usuli shakllandi. Ushbu yondashuv ayniqsa badiiy matnlarni tarjima qilishda muhim ahamiyat kasb etadi, chunki unda matnning mazmuni, uslubi va emotsional rang-barangligi saqlab qolishga e'tibor qaratiladi.

Uchinchi bosqich (XX asr o'rtalari, 1940–1960-yillar) ilmiy-texnik davr sifatida tavsiflanadi. Bu davrda ilm-fan va texnologiyaning rivojlanishi tarjima jarayoniga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Xususan, *machine translation* (kompyuter yordamida avtomatik tarjima) tizimlari va elektron lug'atlar paydo bo'ldi. Bu esa tarjimonlar ishini yengillashtirib, tarjima jarayonining samaradorligini oshirdi.

To'rtinchi bosqich (1960-yillardan hozirgi davrgacha) zamonaviy, fanlararo davr hisoblanadi. Bu davrda tarjima tilshunoslik doirasidan chiqib, madaniyatshunoslik, adabiyotshunoslik, sotsiologiya, psixologiya kabi fanlar bilan uzviy bog'liq holda

o'rganila boshlandi. Natijada tarjima nafaqat lingvistik hodisa, balki murakkab madaniy va ijtimoiy jarayon sifatida talqin qilinmoqda.

Bundan tashqari, mamlakatimizda tarjimonlik nazariyasining rivojiga hissa qo'shgan ko'plab olimlar mavjud. Xususan, Sanjar Siddiq, Sotti Xusayn, Mannon Roik, Madamin Davron kabi olimlar tarjimashunoslik taraqqiyotiga sezilarli hissa qo'shganlar. Shuningdek, Nosir Qambarov, O. Mo'minov, A. Xamidov, I. To'xtasinov, E. Muratova, U. Yo'ldashev kabi olimlar mustaqillik yillarida tarjima sohasining rivojiga munosib hissa qo'shgan tarjimonlar sifatida e'tirof etiladi [2,10].

Tarjima — bu faqat bir tildagi so'zlarni boshqa tilga lug'at va grammatik qoidalar asosida o'girish jarayoni emas. U semiotika [3,23], ya'ni belgilar va ma'nolar tizimi bilan chambarchas bog'liq. Shu sababli tarjimon tarjima jarayonida nafaqat til birliklarini, balki madaniyat, urf-odatlar, milliy mentalitet va jamiyat qarashlarini ham hisobga olishi lozim.

Mashhur tilshunos Edward Sapir ta'kidlaganidek: "Til insonlarning dunyoni qanday idrok etishini belgilaydi" [4,23]. Bu esa har bir til voqelikni o'ziga xos tarzda aks ettirishini anglatadi. Masalan, ingliz tilidagi "*it is raining cats and dogs*" iborasini so'zma-so'z tarjima qilish mumkin emas, chunki u ma'nosini yo'qotadi. Bunday holatda tarjimon mazmuniy tarjima usulidan foydalanib, iboraning asl ma'nosini yetkazishi kerak.

Shuningdek, o'zbek tilidagi ayrim milliy-madaniy birliklar ingliz tilida to'g'ridan-to'g'ri muqobilga ega emas. Masalan, "xontaxta" so'zi. Bunday vaziyatlarda tarjimon izohlash (deskriptiv tarjima) usulidan foydalanib, tushunchani kengroq sharhlash orqali o'quvchiga yetkazadi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, tarjimashunoslik uzoq tarixiy taraqqiyot yo'lini bosib o'tgan bo'lib, oddiy amaliy faoliyatdan mustaqil ilmiy yo'nalish darajasiga ko'tarildi. Hozirgi kunda tarjima nafaqat lingvistik jarayon, balki turli xalqlar va madaniyatlarni o'zaro bog'lovchi muhim ko'priq sifatida qaraladi. Shunday ekan, tarjima jarayonida nafaqat lug'at va grammatika, balki madaniy omillarni ham chuqur hisobga olish zarur.

#### **ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

6. Susan Bassnet. Translation studies. 3rd edition. –London and New York. Taylor & Francis e-Library, 2005. – 176 p. History of Translation theory.
7. G'afurov I., Mo'minov O., Qambarov N. Tarjima nazariyasi. Darslik. – Toshkent, 2012. –216 b.
8. Nida, Eugene A. Toward a Science of Translating. – Leiden: Brill, 1964.
9. Komilov, N. Tarjima nazariyasi asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 2005.
10. Chandler, Daniel. Semiotics: The Basics. – London: Routledge, 2007.